


NORDIC LIFE | 2023



4
SON

Iyun • Iyul
Avgust • Sentabr

1

Muloqotlar

Choraklik hisobotlar

2

Muzokaralar

Jarayonlar tahlili

3

Munosabatlar

Muvaffaqiyat omili

**XALQARO NORDIK
UNIVERSITETI**

**NORDIK HAYOTI
NORDIC LIFE**

Toshkent - 2023

NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

**Xalqaro Nordik universiteti rektori
Sh.Mustafakulov tahriri ostida**

Nashrga tayyorlaganlar:
M.Isaqova, R.Shodmonov

Xalqaro Nordik universiteti media markazida tayyorlangan “Nordic life”ning 4-faslida oliygohning 2023-yil iyun, iyul, avgust va sentyabr oylaridagi faoliyati aks ettirilgan.

Ushbu sonda Finlandiya bilan amalga oshirilgan “Work and travel” dasturi, universitetning fin tajribalarini yurtimizda keng qo’llashdagi hissasi, joylardagi targ’ibotlar, ilmiy yutuqlar hamda talabalarning akademik va noakademik hayoti bilan tanishishingiz mumkin.



INTILGANGA TOLE YOR!

WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!



MUNDARIJA

Kirish

3

Talabalarimiz Karelia UAS prezidenti bilan - bir kun! 4

Surxondaryoda Finlandiya ta'lif tajribalari keng qo'llanilmoqda 5

Finlandiyalik ekspertlar ishtirokida seminar-trening o'tkazildi 5

Rassom Elnur Egamovning «Paradoks» nomli ko'rgazmasi namoyish etildi 6

Kutubxonamizda eng sara kitoblar jamlanmoqda! 6

XNUda xalqaro diplomga ega bo'lish mumkin! 7

XNU vakillari - Qoraqalpog'istonda 7

XNU prorektorlari - bitiruvchi-yoshlar davrasida 8

Rektor va talabalar uchrashuvida 8

Universitetlararo futzal musobaqasi o'tkazildi 8

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining 30 yilligi keng nishonlandi 9

Talabalarimiz - adabiyot va istirohat maskanlarida 9

Intellektual bahs: bilimdonlar saralanmoqda 9

XNU darslik va o'quv qo'llanmalari - nashr ruxsatnomasiga ega 10

Poytaxt bo'ylab sayohatlar mazmunli o'tmoqda 10

Talabalar bilan Finlandiya safari oldidan uchrashuv o'tkazildi 11

XNU delegatsiyasi Finlandiyaga kuzatib qo'yildi 11

XNU Kengashining 7-son yig'ilishi bo'lib o'tdi 12

Elchi janoblari - talabalarimiz bilan! 12

XNU 2023/2024 o'quv yili uchun 10 ta davlat grantini qo'lga kiritdi! 13

XNUga IRES direktori (Shvetsiya) tashrif buyurdi! 13

Xalqaro Nordik universiteti jamoasi ertangi kun uchun ovoz berdilar! 14

Karjalan Sanomat: "Kareliya va O'zbekistonda fin tiliga talab bor" 14

XNUda afg'onistonlik yoshlarga ta'lif berish masalalari muhokama qilindi 15

Futzal bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi vakillari universitetda mehmon bo'ldilar 15

XNUga o'qishga kirib Italiyada ta'lif olish mumkin! 16

Sayohat - unutilmas taassurotlar manbai bo'ldi! 16

MUNDARIJA

XNU Finlandiya va Nordik mamlakatlari bilan hamkorlik platformasi bo'lib xizmat qilmoqda	17
Foundation maktabi bitiruvchilariga Sertifikat topshirildi!	17
Xalqaro Nordik universiteti nimasi bilan xalqaro!?	18
JIDU Akademik litseyida XNU Foundation dasturi tatbiq etiladi	20
Respublika ilmiy-nazariy va amaliy seminari o'tkazildi	21
Xalqaro Nordik universiteti talabalari uchun yana bir xushxabar!	21
Xalqaro Nordik universitetida seminar-trening start oldi	22
Intellektual va texnologik salohiyatni oshirish borasida hamkorlik mustahkamlandi	22
Finlandiyada bo'lib turgan talabalarimiz "Work and travel" dasturini muvaffaqiyatli yakunladilar	23
Finlandiya ta'lif tizimi keng o'rGANildi	23
Jahon banki ta'lif mas'ullari – XNUda	23
"Zakovat"chilarimiz top-10 talikka kirdi!	24
Xalqaro konferensiya o'tkazildi	24
Finlandiya siyosatchi va huquqshunoslari – universitetimizda	25
XNU va markaziy nashrlar hamkorligi	25

KIRISH

“Nordic life”ning navbatdagi faslini e’tiboringizga havola qilayotganimizdan mammunmiz. Universitetning iyun - sentyabr oylaridagi faoliyatiga nazar tashlasak, talabalar uchun yozgi ta’til fursatlarida ham imkoniyatlar yaratildi, xususan, Finlandiyada “Work and travel” dasturi asosida ishonchli daromad topish va sayohat qilishlariga e’tibor qaratildi. 30 nafar talaba ta’tilni xorijda maqsadli va mazminli o’tkazdi. Bu sayohat ular uchun fin, shved va turfa madaniyat hamda qadriyatlar almashish bilan ham alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu broshyuramizda sizlarni bu xususda kengroq tanishtiramiz.

Shuningdek, “Nordic life” sahifalarida universitetning akademik, ilmiy-ta’limiy yangiliklari, xalqaro bilimlarni o’rganish va keng tatbiq etishga qaratilgan say-harakatlari hamda natijalari o’z aksini topgan. Oliygoh faoliyatida yangi hamkorlik ufqlarini ochgan xalqaro tashriflar va muzokaralar, muhim hamkorliklarning Memorandumlar bilan mustahkamlanishi kabi qator salmoqli voqeliklar yoritilgan.

Finlandiyaga ta’lim safarlari, xalqaro ekspertlar ishtirokida o’tkazilgan treninglar ham ushbu chorak XNU faoliyatida nechog’lik salmoqli iz qoldirganining ifodasıdir.



“Nordic Life” orqali nufuzli delegatsiyalar tashriflari, xalqaro oliyohlar bilan hamkorlik, taniqli insonlar bilan qiziqarli uchrashuvlar, o’quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish, Axborot-resurs markazini yangi adabiyotlar bilan boyitish, ilmiy o’sish va yangilanish jarayonlari, talabalar yutuqlari va ustozlarga minnatdorchilik maktublari – universitetning bir chorakdagi qizg’in hayoti bilan yaqindan tanishishingiz mumkin.

Sherzod Mustafakulov

Xalqaro Nordik universiteti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Talabalarimiz Karelia UAS prezidenti bilan - bir kun! Iz-iyunl

Finlandiyaga "**Work and travel**" dasturi kasbiy bilimlarni egallash, fin, shved va turfa madaniyat hamda qadriyatlar almashish bilan ham alohida ahamiyat kasb etdi.

Ish va sayohat dasturi asosida yozgi ta'tilni Finlandiyada o'tkazgan XNU talabalariga Kareliya UAS prezidenti **Petri Raivo** bevosita vaqt ajratdi. Rektor o'z suhbatlarida fin tilini o'zlashtirish, Finlandiya xo'jaliklarida ishlab, daromad olish, fin shaharlarida yashash va harakatlanishda qo'l keladigan barcha zarur tavsiyalarni berib bordi.

Ta'kidlash joizki, Karelia universiteti talabalarning amaliy bilim va ko'nikmalarini oshirishda katta tajribaga ega. Petri Raivo universitet rektori va Finlandiyaning oddiy fuqarosi sifatida o'z hayotiy tajribalarini talabalarimiz va ularga bosh bo'lib borgan ustozlarimiz bilan bo'lishdi.



Nordik universiteti va Qo'qon universiteti talabalari Finlandiyada uchrashdilar.

"Work and travel" dasturi asosida Finlandiyaga tashrif buyurgan talabalarimiz Karelia amaliy fanlar universitetida talaba almashish dasturi bo'yicha ta'lim olayotgan Qo'qon universiteti talabalari bilan uchrashdilar. Tengdosh-vatandoshlar Karelia UAS prezidenti hamrohligida Finlandiya ko'chalariga sayohat qildilar.

"Finlandiya zamonaviy mamlakat bo'lishiga qaramay o'rmon va daraxtlar, yashil tabiat bilan o'ralgan. Aholi u qadar ko'p bo'lmasada ish faoliyatimiz mazmunli va samaralidir, - deydi Petri Raivo.

U bilan suhbatlarda finlarning o'z hayotlaridan mammunlik sirlari, halol va shu bilan birga ishonuvchanlik hislatlari va boshqa qiziqarli mavzularda so'z bordi.

Surxondaryoda Finlandiya ta'lim tajribalari keng qo'llanilmoqda |2-iyun|



Xalqaro Nordik universiteti tomonidan Surxondaryo viloyatining bir guruh ta'lim tizimi vakillari uchun Finlandiyada ikki haftalik ilmiy-amaliy kurs tashkil etildi.

Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinnbosari boshchiligidagi o'qituvchilar delegatsiyasi Helsinki shahrida o'quv kursini muvaffaqiyatli tamomlab, Sertifikat bilan qaytdilar.

Finlandiyalik ekspertlar ishtirokida seminar-trening o'tkazildi |5-iyun|

Xalqaro Nordik universitetiga Karelia amaliy fanlar universiteti delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Bu hamkor universitetning ta'lim ekspertlari ishtirokida "**Oliy ta'limda yuqori sifatli va samarali ta'limni qanday targ'ib qilish kerak - Finlyandiya kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlari, UAS pedagogikasi va sifatiga kirish**" mavzusida seminar-trening o'tkazildi.

Seminar-treningda Kareliya AFU Vitse-prezidenti Dr Pekka Auvinen, Xalqaro bo'lim boshlig'i Dr Liisa Timonen, Ta'limni rivojlantirish bo'limi boshlig'i Dr Marjo Nenonen, Ta'lim boshlig'i Ulla Asikainen xonim o'z taqdimat va ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Treningda Yevropa va milliy darajadagi oliy ta'lim sifatini boshqarish, kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlari, sanoat va amaliy pedagogik tajribalar o'rganildi.

Shunigdek, Bolonya jarayonlari, oliy ta'limda sifatni boshqarish tamoyillari, Yevropa tadqiqot hududi mavzularidagi xalqaro seminar-treningda OTMlarning o'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy-innovatsion tadqiqotlar bo'yicha mutaxassislari ishtirok etyaptilar. Treningda Yevropa oliy ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish xususidagi yangi tajriba hamda ma'lumotlar yetkazildi.

Trening yakunida Finlandiyalik mehmonlar uchun poytaxtimizning diqqatga sazovor joylari bo'ylab tashkillangan sayr hayratli va mazmunli kechdi.

Ayniqsa, ular Osiyoda eng betakror sanalgan "**Magic City**" istirohat bog'ining o'ziga xos sehridan bahra oldilar.



Rassom Elnur Egamovning «Paradoks» nomli ko'rgazmasi namoyish etildi |Siyun|

Noodatiy installyatsiya aks etgan ko'rgazma Karelia universitetidan tashrif buyurgan mehmonlar, xususan professor-o'qituvchilar va boshqa tomoshabinlarni hayratlantirmoqda.

Ko'rgazmada jamiyatimiz va ongimizdagi ayrim muammolar ko'rsatib berilgan hamda yechimi o'zimizga havola etilgan. Qiziqarlisi, yaroqsiz buyumlardan foydalangan holda, ready-made texnikasi asosida yaratilgan ushbu ko'rgazmani nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-tadqiqot ob'yekti sifatida ham ahamiyatli deyish mumkin.



Kutubxonamizda eng sara kitoblar jamlanmoqda!

Talabalarning talab va istaklariga ko'ra kutubxonamizga rus, ingлиз tillarida, motivatsion, psixologik, badiiy asarlar va bestsellerlar keltirildi.

Bularning har biri insoniyat, fan, texnologiya va o'z kelajagiga qiziqqan har bir inson o'qishi shart bo'lgan kitoblardir.



XNUda xalqaro diplomga ega bo'lish mumkin! |8-iyun|

Finlandyaning Kareliya universiteti bilan hamkorlikda XNUda joriy yilning sentyabr oyidan **"Sanoat menejmenti"**, **"Xalqaro biznes"** va **"Axborot kommunikatsiya texnologiyalari"** kabi 3 ta ta'lrim yo'nalishi bo'yicha doublee degree dasturining amaliyatga joriy etilishi belgilangan.

Fin ta'lrim ekspertlari bilan qo'shma dastur o'quv rejalarini va amalga oshiriladigan yillik rejalar, talabalarning malakalarini baholash kabi qator ustuvor mavzular bo'yicha tajriba almashildi, o'qituvchilarimizning malakasi oshirildi.



XNU vakillari - Qoraqalpog'istonda |9-iyun|



XNU prorektori **Odiljon Qo'ysinov** hamkor oliygoh - **Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida** targ'ibot tadbiri o'tkazdi.

Institut ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchi kurs talabalari ishtirokida o'tgan tadbirda Finlandiya ta'lim tizimi, Xalqaro Nordik universitetida fin modellariga asoslangan ta'lim olish imkoniyatlari taqdimot qilindi.

Talabalar ma'ruzani qiziqish bilan tingladilar va o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar.

XNU prorektorlari davrasida |9-iyun|

bitiruvchi-yoshlar



Poytaxtimiz maktablarining bitiruvchilarini qaysi oliygohma ta'lrim olsam ekan, kabi savol o'ylantirayotgan fursatlarda XNU vakillari bitiruvchi-o'quvchilar orasiga kirib borib, ularning oliy ta'lim olish imkoniyatlaridan xabardorlik darajalarini oshirdi.

Akademik ishlar bo'yicha prorektorimiz Muhammadsiddiq Amonboyev Yakkasaroy tumanidagi 26-maktab bitiruvchilari bilan uchrashuv o'tkazdi va ularni qiziqtirgan barcha savollarga javoblar berdi.

Shuningdek, XNU va Toshkent shahar Yakkasaroy tumanı Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hamkorligida umumta'lim maktablari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish maqsadida targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Uchrashuvda tumanning 14 ta umumta'lim maktabi bitiruvchi-o'quvchilari ishtirok etdilar.

Rektor va talabalar uchrashuvida |12-iyun|

Universitetlararo futzal musobaqasi o'tkazildi |12-iyun|

Universitetimiz rektorining sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar bilan uchrashuvi o'tkazildi.

Samimiy ruhda o'tgan muloqotda mustaqil o'qish va mutolaaning ahamiyati ta'kidlab o'tildi. Talabalarga universitetda o'qish, yakuniy nazorat ishlarini topshirish va mustaqil ilmiy faoliyatga doir zarur mal'umotlar berildi.

Jamiyatning iqtisodiy yuksalishi intellektual salohiyatning boyishi bilan bog'liq. Universitet talabalarga bu borada asosiy yo'l ko'sratuvchi yo'llboschchidir. Bo'lajak mutaxassislarning kelgusi hayoti bilim bilangina sifatli bo'ladi. Universitet rektorining sirtqi ta'lim shakli talabalari bilan uchrashuvlarida shular xususida so'z bormoqda.



"Yoshlar oyligi" doirasida Toshkent kimyo-texnologiya institutida futzal sport turi bo'yicha "Rektor kubogi" musobaqasi o'tkazildi.

Universitetlararo musobaqada "Nordik" jamoasi ishtirok etib, katta taassurot va tajribaga ega bo'lishdi.

Bu sport tadbiri talabalarda bir jamoa bo'lib harakatlanish va o'zaro hamjihatlikni oshirdi. Universitetlar o'ttasida sog'lim turmush tarzi borasidagi tadbirlar debochasi bo'ldi.

"Nordik" jamoasiga keyingi musobaqlarda zafarlar tilab qolamiz!

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining 30 yilligi keng nishonlandi |13-iyun|

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi O'zbekiston bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun O'zbekiston va BMTTD o'rtaida xalqimizga yanada yashil, adolatli va inklyuziv taraqqiyot olib kelish uchun kuchlarni birlashtirish bo'yicha muhim kelishuvning 30 yilligi keng nishonlandi.

Ushbu nufuzli tadbirda XNU rahbariyati ham ishtirok etdi.



Talabalarimiz - adabiyot va istirohat maskanlarida |13-iyun|

Sirtqi ta'lif shaklida tahsil olayotgan talabalarning offlaysn o'qish kunlarini esda qolarli o'tkazish maqsadida sayohatlar tashkil etish an'anaga aylangan.

Toshkent shahrining eng go'zal va so'lim maskanlaridan biri, buyuk adiblar hayoti va ijodidan darak beruvchi "Adiblar xiyoboni"ga sayrlar o'zgacha mazmunli o'tadi. Mumtoz adabiyot xususida adabiy suhbatlar quriladi.

Shuningdek, Magic City bo'ylab sayr ham maroqli o'tadi.



Intellektual bahs: bilimdonlar saralanmoqda |15-iyun|



"Zakovat Quiz" o'z sinov maydonida intellektual o'yin ishqibozlarini jamlamoqda.

Qiziqarli va hayajonga boy o'tgan o'yinlarda jamoalarning aql-zakovati va fikr uchqurligi sinovdan o'tkazilyapti hamda g'oliblar mukofotlanyapti.

Qiziqarli tarixiy faktlar, ilm-fanga oid noyob dalillar va raqamli yangiliklar bo'yicha kutilmagan savollar bilimdonlarni o'yga toldiradi va bahsga chorlaydi.

XNU darslik va o'quv qo'llanmalari - nashr ruxsatnomasiga ega [15-iyun]

XNU professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan "Amaliy ekonometrika" nomli darslik nashr ruxsatnomasiga ega bo'ldi.

Yangi avlod adabiyotlari sirasiga kiruvchi o'quv qo'llanma uchun O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'iiga asosan nashr ruxsatnomasi berildi.

Shuningdek, "Ekonometrika asoslari" va "Xalqaro moliya" nomli darsliklar nashri uchun ham ruxsatnomalar taqdim etildi.



Poytaxt bo'ylab sayohatlar mazmunli o'tmoqda [15-iyun]



Sirtqi ta'lim shakli talabalari uchun o'qishdan tashqari bo'sh vaqtlarida poytaxt tarovatidan babra olish imkoniyati yaratilmoqda.



Yaxshi suhabatdosh - ustoz, adabiy, falsafiy, ilmiy-ma'rifiy va motivatsion ruhdagi suhabatlar, yangi ko'rkar manzillarga sayohatlar ushbu jihatlari bilan ham talabalar uchun esda qolarli o'tmoqda.



Talabalar bilan Finlandiya safari oldidan uchrashuv o'tkazildi

18-iyun kuni Xalqaro Nordik universitetining bir guruh talabalari va xodimlari 3 oylik "**Work and travel**" dasturi bo'yicha Finlandiyaga jo'nab ketishadi.

Dastur doirasida universitetimiz hamkor bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining ekspertlari tashrif buyurdilar va Finlandiyaga ketayotgan talabalarga o'z maslahatlari, kerakli tarqatma materiallar taqdim etishdi.

Bu uchrashuv talabalarni chet davlatga borib, adaptatsiya bo'lislari, mehnat va sayohatlarini to'g'ri amalga oshirishlari uchun juda katta yordam berdi.



XNU delegatsiyasi Finlandiyaga kuzatib qo'yildi |18-iyun|



Navbatdagi delegatsiya - ustozlar boshchiligidagi talabalarimiz 3 oyga Finlyandiyaga yo'l oldilar. Safar oldidan ustozlar, talabalar va ota-onalarining hayajon hamda quvonchlari cheksiz bo'ldi.

Talabalarimizga chet davlatga borib, adaptatsiya bo'lislari, mehnat va sayohatlarini to'g'ri amalga oshirishlari uchun kerakli ma'lumotlar berildi.

Xorijda ular dastur asosida kasbiy bilimlarni egallash, yangi ish tajribalarini o'rganish, til bilish darajalarini oshirish, qadriyatlar almashish, qolaversa, bu fusunkor yurting mo'jizakor ne'matlari bilan tanishish imkoniyatlariiga ega bo'ldilar.



XNU Kengashining 7-son yig'ilishi bo'lib o'tdi |23-iyun|

Kengash yig'ilishi kun tartibidan universitet faoliyatiga oid o'nga yaqin dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Kengash yig'ilishida dastlab "Work and travel" dasturi bo'yicha talabalarni saralab olish mexanizmi, ularni xorija yuborish tartiblari to'g'risida mas'ul departament boshlig'ining hisoboti tinglandi.

Kengash yig'ilishida kunduzgi va sirtqi ta'lif shaklida tahsil olayotgan talabalar bilan ishlashni yanada samarali tashkil etish, yozgi ta'tilda ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun maxsus Yozgi kurslar tashkillash masalalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, mustaqil izlanuvchilar bilan samarali ishslash, yangi ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari ochish, universitet professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlanayotgan o'quv adabiyotlarni chop etishga oid turli masalalar ham atroficha muhokama etildi.

Kengashda a'zolarning takliflari o'rganilib, ko'rilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.



Elchi janoblari - talabalarimiz bilan! |30-iyun|

Finlyandiyaning Markaziy Osiyodagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysenyan va Karelia universiteti prezidenti Petri Raivo ish va sayohat dasturi bo'yicha Finlandiyada bo'lib turgan talabalarimiz bilan uchrashdilar. Bu uchrashuv va samimiy suhbat talabalarimizga yangi kuch bag'ishladi.



Finlandiyaning Markaziy Osiyodagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysenyan shaxsan "Work and Travel" dasturi bo'yicha Finlandiyada bo'lib turgan talabalarimiz bilan uchrashuv tashkil qildi. Talaba-yoshlارimiz holidan xabar olib, ular bilan ingliz va fin tillarida dildan suhbat qurdi.

Qizg'in suhbat davomida elchi janoblari Finlandiyada tashkil etilayotgan madaniyat kunlarida O'zbekistonning ham urf-odatlari, taomlari, o'ziga xos qadriyat va madaniyati kunini tashkil etish imkoniyati borligini ta'kidladi va barcha talabalarimizni bu anjumanga shaxsan taklif etdi.

Finlandiyada XNU va talabalarimiz sharafiga O'zbekiston madaniyati va taomlari kuni yuqori zavq va shavq bilan tashkil etildi! Talabalarimiz madaniyat almashinuviga hissa qo'shdilar. Talabalarimiz fin diyorida o'zbekona mehmondo'stlik an'analarimizni keng yoydilar.

XNU 2023/2024 o'quv yili uchun 10 ta davlat grantini qo'lga kiritdi! |4-iyun|



Xorijiy va nodavlat OTMlariiga davlat granti uchun kvotalar taqsimoti e'lon qilindi. Xususan, Xalqaro Nordik universitetiga:

- Kompyuter injiniringi ("Kompyuter injiniringi", "AT-Servis", "Axborot xavfsizligi", "Multimedia texnologiyalari") yo'naliishiga 5 ta;
- Psixologiya yo'naliishiga 5 ta davlat granti ajratiladi.

Davlat granti eng yuqori ball bilan o'qishga kirgan abituriyentlarga beriladi.

XNUga IRES direktori (Shvetsiya) tashrif buyurdi! |8-iyun|

XNU rahbariyati, universitet boshqaruven kengashi raisi, Finlandiyaning O'zbekistondagi faxriy konsuli hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha xalqaro kuzatuvchi, Uppsala universiteti huzuridagi Rossiya va Yevroosiyo tadqiqotlari instituti (IRES) direktori **Mark Bassin** o'ttasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda universitetning xalqarolashuvi, akademik tizimidagi rivojlanish odimlari va istiqboldagi rejalar xususida so'z bordi. Shvetsiya OTMlari bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, ikki tomonlama qo'shma ta'lif dasturlarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlari xususida fikr almashildi.

XNU rahbariyati va IRES direktori o'ttasida qizg'in muzokara bo'lib o'tdi.



Xalqaro Nordik universiteti jamoasi ertangi kun uchun ovoz berdilar! |9-iyun|

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi munosabati bilan 9-iyulda universitetimiz jamoasi bir oila bo'lib, yaqin hududdagi saylov uchastkasida tashrif buyurdilar.

Xalqaro Nordik universiteti professor-o'qituvchilari va talabalari ham saylovda ertangi kun uchun ovoz berdilar.



Karjalan Sanomat: "Kareliya va O'zbekistonda fin tiliga talab bor" |10-iyul|

Finlandiyalik professor-o'qituvchi Tatyana Islamayevaning e'tirof etishicha, u Xalqaro Nordik universitetidagi faoliyati davomida mutlaqo yangi ish tajribasiga ega bo'ldi.

U "Karjalan Sanomat" (Kareliyadan yangiliklar) nashriga bergan intervusida XNUni O'zbekistonda o'quv rejasida fin tili asosiy fan sifatida o'qitimlayotgan yagona ta'lif muassasasi ekanligini qayd etdi.

Suomen kielelle on kysyntää Karjalassa ja Uzbekistanissa

Kontesta
Mikäli teillä on
tietoa, miten
muodostetaan
ja miten se
tehdään? Tässä
on esimerkki!



99. Opettajalla kylläkin voinut
venäjän, englannin ja uzbekin kehittää
joukkien lähteeksäkseen edellä jo
tässä.

Eduksilken opettajatyö ja yhteiskunnallinen toimintaa

Bolakaylar - izzatda...

Sirtqi ta'lif shakli yakuniy imtihonlariga talabalarimiz kichkintoy farzandlari bilan ham kelib qatnashmoqdalar.

Universitetimizda bolakaylar uchun hozirlab qo'yilgan, o'yinchoqlar bilan jihatlangan xonada vaqtlarini mazmunli o'tkazyaptilar.



XNUda afg'onistonlik yoshlarga ta'lif berish masalalari muhokama qilindi |26-iyul|

Afg'oniston fuqarolarini o'qitish markazi salohiyatli kadrlar tayyorlashda XNU bilan hamkorlik qilmoqda.

Termiz shahridagi mazkur markaz direktori Oybek Ro'ziyev universitetimizga tashrif buyurdi. Uch rashuvda bakalavr bosqichini tamomlagan ilk qaldirg'ochlarning XNU magistratura mutaxassisliklarida ta'lif olish istaklari inobatga olinib, ilm olishlariga sharoit yaratishga kelishildi.



Futzal bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi vakillari universitetda mehmon bo'ldilar |3-avg.|

XNU rahbariyati va **Bahodir Ahmedov** bosh murabbiyligidagi terma jamoa vakillari o'rtaida qizg'in suhabat bo'lib o'tdi. Bu uchrashuv terma jamoaning Finlandiyaga tashrifi oldidan o'tkazilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumot o'rnidida, avgust oyida O'zbekiston - Finlandiya terma jamoalar o'rtaida ikkita o'rtoqlik uchrashuvi o'tkaziladi. Jamoaning Finlandiyaga tashrifi XNU hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Kelgusi yilda O'zbekiston futzal bo'yicha jahon championatiga mezbonlik qiladi. Universitetimiz jamoasi va talabalariga championatni yaqindan kuzatish imkoniyati yaratiladi.



XNUga o'qishga kirib Italiyada ta'lif olish mumkin!



Xalqaro Nordik universiteti talabalariga Yevropada tan olingan Italiyaning nufuzli universitetida o'qish imkonini beruvchi kelishuv imzolandi.

2023-2024 o'quv yilida bakalavr, magistr va doktorantlarimiz uchun Italiyada o'qishga imkoniyat eshlari ochildi. Dunyoning eng go'zal davlatlaridan biri - Italiyaning Trento universitetida ta'lif olish imkoniyati qo'lga kiritildi.

"QS World University Ranking 2023" tomonidan baholangan dunyodagi 1400 dan ortiq universitet ro'yxatida Trento universiteti 457-o'rinni egallaydi.

Didaktika, tadqiqot va xalqaro munosabatlari sifati bo'yicha Italiyada 1-o'rinni, talabalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha 4-o'rinni egallaydi.

Sayohat - unutilmas taassurotlar manbai bo'ldi! | 8-avg.|

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani yozgi sayohat mavsumida quyosh, tog'lar va suv havzalari uyg'unligida betakrorlik kasb etib turibdi.

Xalqaro Nordik universiteti jamoasidagi xotin-qizlar uchun ichki turizm imkoniyatlaridan foydalangan holda maroqli va esda qolarli sayohat uyushtirildi.

Chorvoq qirg'oqlari, Xumson, Sidjak, Bog'iston bo'ylab sayohatda yurtimiz tabiatni, ziyoratgohlar va go'zal manzillaridan bera olindi. Ayniqsa, "Chinorkent" kompleksida teleferikda yuqori tog' tizmalariga ko'tarilib, tabiatning noyob atmosferasidan bahramand bo'lindi.



XNU Finlandiya va Nordik mamlakatlari bilan hamkorlik platformasi bo'lib xizmat qilmoqda |8-avg.|

XNU ko'magida O'zbekiston va Finlandyaning Futzal terma jamoalar o'rtasida o'rtoqlik uchrashuvlari tashkil etildi. Do'stona ruhda o'tgan o'yinlarda ikki bor durang qayd etildi (birinchi o'yin - 3:3, ikkinchi o'yin - 2:2).

Jamoalar mazkur turnirni tashkil qilishda yaqindan ko'mak bergani uchun XNUga tashakkur izhor qilishdi va hamkorlikni yanada kengaytirishga ishonch bildirishdi.

Foundation maktabi topshirildi! |8-avg.|**bitiruvchilariga****Sertifikat**

XNUning Foundation maktabini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga Sertifikatlar topshirildi.

Bitiruvchilarga o'z qobiliyatları va qiziqishlaridan kelib chiqib, universitet yo'naliishlaridan birini tanlash hamda imtihonsiz talaba bo'lish imkoniyati yaratildi.

Quvonchlisi, maktabda o'qib turib, Foundation maktabi orqali xalqaro universitet talabasiga aylangan 5 nafar bitiruvchilarimiz 2-kurs talabasi bo'ldilar.

Foundation maktabi - kafolatlangan talabalik!



Xalqaro Nordik universiteti nimasi bilan xalqaro!?

1. Xalqaro Nordik universiteti (XNU) dunyoda yetakchi fin kompaniyalari bilan strategik hamkorlikda ochilgan. Kareliya amaliy fanlar universiteti, "Nokia" transmilliy korporatsiyasi, "ISKU" kompaniyasi, "Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu (SYK)" umumta'lim maktabi, Solar Finland va Finnish Water Forum kabi o'nlab fin kompaniyalari bilan rasmiy hamkorlikda faoliyat yuritmoqda.
2. Xalqaro Nordik universiteti xalqaro imkoniyatlarga katta yo'l ochib, kunduzgi va sirtqi ta'lim talabalari uchun yozgi ta'tilda "**Work and travel**" dasturi asosida Finlandiya, Norvegiya, Daniya kabi Nordik davlatlarida **300 o'rinnli** ish va sayohatni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarni imzolagan.
3. Finlandiyadagi 1000 talikka kirgan **Kareliya UAS** bilan qo'shma dastur asosida "**Xalqaro biznes**" va "**Sanoatni boshqarish**" yo'nalishlarida xalqaro mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bu talabalarga Finlandiyada ta'lim olish yoki O'zbekistonda turib fin ta'limini egallash va xalqaro diplom (**double degree**) olish imkoniyatini taqdim etadi.
4. XNUga o'qishda kirib, talaba almashish dasturi (exchange) asosida Finlandiya, Italiya, Amerika, Yaponiya va Koreya kabi rivojlangan davlatlarda ta'lim olish mumkin. Bakalavriat va magistraturada Italiyaning dunyodagi 1400 ta universitet ro'yxatida 457-o'rinda turuvchi **Trento universitetida o'qish imkoniyati mavjud**.
5. Xalqaro Nordik Universiteti talabalarning bakalavriat bosqichidan so'ng hamkor xorijiy davlatlardagi yetakchi kompaniyalarda ishlashi, stajirovka yoki o'z biznes start-up loyihalarini amalga oshirishlarini qo'llab-quvvatlaydi.
6. Xalqaro Nordik universiteti xalqaro platforma vazifasini bajarib, ilk "**O'zbekiston - Finlandiya xalqaro biznes forumi**"ni o'tkazdi. Forumda ikki davlat vazirlik va idoralari, dunyoning yetakchi fin kompaniyalari - Nokia, Reka Cables, FinnPartnership, Honka, Kone, Suokone kabi 30 dan ortiq kompaniya rahbarlari va mutaxassislari, Finlyandianing XAMK amaliy fanlar universiteti hamda OAVlar vakillari ishtirop etdilar. Nufuzli anjumanda fin va mahalliy biznes vakillarining B2B, B2G uchrashuvlari tashkil etilib, o'zaro hamkorlik shartnomalari imzolandi, kelajakda istiqbolli loyihalar bo'yicha 10 dan ortiq kelishuvlarga erishildi.

Xalqaro Nordik universiteti nimasi bilan xalqaro!?

7. Xalqaro Nordik universiteti tomonidan xorijiy va mahalliy pedagoglar uchun Finlandiyaga 4 marotaba ta'lrim safarları uyuştırıldı. Universitet bazasida fin ta'lrim ekspertlari ishtirokida yurtimiz ta'lrim sohasi vakillari uchun doimiy tarzda onlayn va offlayn seminarlar o'tkazilmoqda. 100 nafardan ortiq qozog'istonlik pedagoglar, maktab direktorlari ishtirokida "**Finlandiyada ta'lrim: maktablarda raqamli infratuzilma va xalqaro PISA tadqiqoti doirasida o'qitish usullari**" mavzusida xalqaro o'quv kurslarining 5 ta fasli o'tkazildi. Finlandiyalik ekspertlar ishtirokida soha faollarida xalqaro malakalar shakllantirib borilyapti.
8. Xalqaro Nordik universitetida "**Finlandiya ta'lrim kechasi**" o'tkazildi. Xalqaro Nordik universiteti va Kareliya amaliy fanlar universiteti o'rtasida bitim, Finlyandianing Milliy ta'lrim agentligi va UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi o'rtasida Anglashuv memorandumlari imzolandi. Universitetda Mikayel Agrikola nomidagi "**Fin tili va madaniyati markazi**" faoliyati yo'lga qo'yildi.
9. XNU o'zbekistonlik talabalarning Finlyandiyada ta'lim olishlariga shart-sharoit yaratib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va yetakchi sohalarga Finlyandianing ilg'or texnologiyalari joriy etishga puxta poydevor yaratmoqda. Shuningdek, 2 marotaba finlandiyalik yoshlarning yurtimizga tashriflari uyuştirildi. Finlandiyada mashhur **Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu**, ya'ni Finlandiya-Xelsinki qo'shma ta'lim maktabi direktori va o'quvchi-yoshlarning yurtimizga va universitetga tashriflari yangi bilim, tajriba va qadriyatlar almashish asos bo'ldi.
10. XNU O'zbekiston-Finlandiya huquqshunoslarning o'zaro tajriba almashishlariga hissa qo'shmoqda. O'zbekistonlik bir guruh huquqshunoslarning Finlandiya Adliya vazirligi, Bosh prokururaturasi va boshqa huquq-tartibot tashkilotlariga tashriflari amalga oshirildi. Shuningdek, XNU Finlandianing Xelsinki universiteti Huquq ustuvorligi markazi (**Rule of law centre**), Toshkent davlat yuridik universiteti bilan hamkorlikda "Huquq ustuvorligini ta'minlash: Finlandiya tajribasi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi va bu huquqiy davlatning tajribalari keng o'rganildi.
11. Xalqaro Nordik universiteti ko'magida Finlyandiya Respublikasining ta'lim bo'yicha nufuzli ekspertlari viloyatlar hokimlarining ta'lim maslahatchisi faoliyatiga jalb etilmoqda. Savoniya universiteti professori, ta'limdagi AKTni joriy etish bo'yicha mutaxassis, Finlyandiya maktablarida yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha 25 yillik tajribaga ega **Petri Lunaskopri** Qashqadaryo viloyati hokimining ta'lim maslahatchisi etib tayinlandi. Finlyandiya va Yevropada o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ta'limga rivojlantirish bo'yicha 25 yildan ortiq tajribaga ega o'quv dizayneri, ta'lim maslahatchisi **Hanne Koli** Navoiy viloyati hokimining ta'lim bo'yicha maslahatchi sifatida faoliyat olib boryapti. Toshkent viloyati maktablarida ham ta'lim maslahatchisi fin tajribasini tatbiq etish bo'yicha qimmatli maslahatlari bilan faol ishtirok etmoqda.

JIDU Akademik litseyida XNU Foundation dasturi tatbiq etiladi |5-sen.|

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirligi huzuridagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik litseyida Xalqaro Nordik universiteti rahbariyati, xorijiy hamkorimiz - Finlandiyaning Kareliya universiteti Prezidenti va fin ta'lim ekspertlari ishtirokida nufuzli tadbir tashkil etildi.

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rbinbosari, JIDU rektori **Sodiq Safoyev** va nufuzli mehmonlar litsey tinglovchilarini yangi o'quv yili bilan tabrikladilar.

Anjumanda XNU va JIDU o'rtasida imzolangan memorandumga ko'ra litseyda bo'lajak xalqaro huquqshunoslarga fin ta'lim modellari asosida bilim berilishi e'tirof etildi. Ular uchun Finlandiya va boshqa Yevropa mamlakatlarida talabalar almashinuvni va o'quv kurslari ham tashkil etilishi ma'lum qilindi.

Ma'lumot o'rnida, Xalqaro Nordik universiteti litsey o'quv rejali ishlab chiqilishi va o'quv jarayoniga xalqaro professor-o'qituvchilarni jalb qilishda ko'maklashmoqda. Litseyda XNU Foundation dasturi bo'yicha ta'lim beriladi. Litsey bazasida "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Xalqaro biznes va Xalqaro huquq" ta'lim yo'nalishlarida qo'shma dasturlar asosida o'qitiladigan guruhlar tashkil qilindi.

Ma'lumot o'rnida, Xalqaro Nordik universiteti litsey o'quv rejali ishlab chiqilishi va o'quv jarayoniga xalqaro professor-o'qituvchilarni jalb qilishda ko'maklashmoqda. Litseyda XNU Foundation dasturi bo'yicha ta'lim beriladi. Litsey bazasida "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Xalqaro biznes va Xalqaro huquq" ta'lim yo'nalishlarida qo'shma dasturlar asosida o'qitiladigan guruhlar tashkil qilindi.



Toshkentda o'qib, Yevropa diplomiga ega bo'lish mumkin!

Xalqaro Nordik universitetida Finlandiyaning Kareli amaliy fanlar universiteti bilan hamkorlikda qo'shma dastur (double degree) asosida:

"Xalqaro biznes";

"Sanoatni boshqarish";

"Kompyuter injiniringi" yo'nalishlari ochildi.

Ayni paytda Kareliya universiteti rektori Petri Raivo boshchiligidagi fin professor-o'qituvchilari bilan qo'shma ta'lim dasturlari takomillashtirildi. Yangi o'quv yilda talabalarga fin modeli asosida xorijiy bilimlar berishga tayyorgarlik ko'rildi.

Respublika ilmiy-nazariy va amaliy seminari o'tkazildi |8-sen.|

Xalqaro Nordik universitetida respublika Oliy ta'llim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, vazirlik huzuridagi Ta'llim markazi, Madaniyat va turizm vazirligi hamkorligida respublika seminari o'tkazildi.

Ilmiy-nazariy va amaliy seminarda soha uslubchilari, professor-o'qituvchilar ishtirokida respublika uzlusiz ta'lim tizimida musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishning dolzARB masalalari va ularning istiqbolli yechimlari keng muhokama etildi.

Xalqaro Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov** va Musiqa ta'limi kafedrasi mudiri **Qurbanoniyoz Panjiyev** naфosat tarbiyasi hisoblangan musiqiy ta'llimning ahamiyati, XNUda soha uchun o'qituvchi-kadrlar tayyorlashning istiqbol rejaliри xususida to'xtaldilar.

Seminarda mavzu yuzasidan ma'ruzalar tinglandi, muammo va yechimlar bo'yicha muhokamalar o'tkazildi.

Respublika ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy seminari ishtirokchilari Sertifikatlar bilan taqdirlandilar.

Anjumanda musiqiy tanaffus ishtirokchilarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Bugun – **8-sentyabr - Xalqaro Nordik universiteti rasmiy ochilganining 1 yilligi** munosabati bilan qutlovlari va ezgu tilaklar bildirildi, kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilandi!



Respublika ilmiy-nazariy va amaliy seminaridan fotolavhalar

Xalqaro Nordik universiteti talabalarini uchun yana bir xushxabar!

Universitetimiz Amerika
Qo'shma Shtatlaridagi bir
necha universitetlar bilan yaqin
hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Buning ilk samarasini sifatida
2024-yil yanvar oyidan ilk
exchange dasturlari boshlanadi.



Xalqaro Nordik universitetida seminar-trening start oldi

"Universitetning nufuzini oshirishda akademik, ilmiy va xalqaro sohalarning o'rni: professor-o'qituvchi bilishi lozim bo'lgan jihatlar" mavzusida seminar-trening haftaligi boshlandi.

Treningda professor-o'qituvchilarni universitetda tatbiq etilayotgan qadriyatlar bilan tanishtirish, kasbiy mahoratlarini yanada oshirish bo'yicha o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va xalqarolashuv sohalarida amalga oshirilayotgan ilg'or texnologiyalar, metodlar bilan tanishtirish, korporativ boshqaruva psixologiyasining mazmun-mohiyatini yetkazishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.



Treningda universitet rahbariyati, barcha professor-o'qituvchilar, departamentlar xodimlari ishtiroy etmoqdalar.



Seminar-trening ochilishida Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov universitet faoliyatining 1 yillik sarhisobi, erishilgan natijalar va xulosalarga to'xtaldi. Universitetni rivojlantirishning kompleks rejisi: raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish yo'llari va professor-o'qituvchilar oldida turgan muhim vazifalarni belgilab berdi.



Treningda 2023/2024 o'quv yili strategiyasi: akademik, ilmiy tadqiqot va xalqarolashuvni rivojlantirish, universitetning xorijiy hamkorlari, nashr ishlari xususida so'z bordi.

Shuningdek, trening ishtirokchilari jamoaning yetakchilik salohiyatini o'stirish konsepsiyalari, intizom madaniyati, muvaffaqiyatga erishishning 10 muhim qoidasi bilan tanishtirilib, motivatsiya berib o'tildi.

Intellektual va texnologik salohiyatni oshirish borasida hamkorlik mustahkamlandi |12-sen.|

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi, Finlandyaning "**Econet Oy**" kompaniyasi va Xalqaro Nordik universiteti o'rtasida muzokara bo'lib o'tdi.

Muzokarada O'zbekiston - Finlandiya iqtisodiy sherikligini turli sanoat tarmoqlaridagi yaqin hamkorlik orqali yanada mustahkamlash, texnologiyalar transferi, iqtisodiy investitsiyalarni rag'batlantirish xususida istiqbolli takliflar ilgari surildi.

Muzokara davomida innovatsiyalarni rag'batlantirish, qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan uch tomonlama Anglashuv memorandumi imzolandi.



Finlandiyada bo'lib turgan talabalarimiz "Work and travel" dasturini muvaffaqiyatli yakunladilar |12-sen.|



Talabalarimiz Helsinki shahridagi Finlandiya Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga tashrif buyurib, Finlandyaning Markaziy Osiyodagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raisanen tomonidan kutib olindilar.

Elchi talabalarimiz bilan "Work and travel" dasturi doirasida olgan taassurotlari, qimmatli tajribalari va keljakdagi rejalar haqida suhbatlashdi. Kelgusida ushbu dasturni yanada rivojlantirish borasida fikr almashildi.

Finlandiya ta'lif tizimi keng o'rganildi |13-sen.|



Joriy yilning 11 - 23-sentyabr kunlari O'zbekistonning Shvetsiyadagi elchixonasi, Finlandyaning O'zbekistondagi faxriy konsulligi yordamida **Xalqaro Nordik universiteti** tomonidan Finlandyaning **Helsinki, Jyväskylä, Kareliya** va **JAMK** amaliy fanlar hamda pedagogika universitetlari va Shvetsiyaning Sodertorn universiteti bilan hamkorlikda xalqaro malaka oshirish kursi tashkil etildi.

XNUda ta'lif safari oldidan seminar-trening o'tkazildi. Unda mamlakatimizdagi 10 ta oly ta'lif muassasining 23 nafar rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi.



Treningda XNU prorektori Odiljon Qo'yinov va xalqaro ekspert Odiljon Kattayevlar ta'lif sohasidagi global mashhur innovatsion yondashuvlar, O'zbekiston - Finlandiya o'rtaqidagi hamkorlik va ta'lif safarining maqsadi xususida ma'lumotlar berdilar.

Xalqaro Nordik universitetida ta'lif integratsiyalashuvi doirasida 10 ta OTM vakillari bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Ta'lif delegatsiyasi XNU prorektori boshchiligidagi Finlandiyada mamlakat ta'lif tizimi bilan yaqindan tanishdilar.

Jahon banki ta'lif mas'ullari – XNUda |20-sen.|

Universitetimizga Jahon banki Toshkent offisi tashabbusi bilan Jahon banking Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida global ta'lif amaliyoti bo'yicha mas'ul vakillari tashrif buyurdilar.

Universitetimiz rahbaryati va Jahon banking Ta'lif masalalari bo'yicha yuqori darajali rahbari Rita Almeida, bank bosh iqtisodchisi janob Hiroshi Saeki, bank Toshkent offisining ta'lif masalalari bo'yicha mutaxassisii Viktoriya Babakhodjaevalar o'rtaSIDA uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muzokarada Jahon banki ko'magida yurtimizda ta'lif xizmatlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihibar xususida so'z bordi.

Uchrashuvda hamkorlik istiqbollari belgilab olindi.



"Zakovat"chilarimiz top-10 talikka kirdi! |25-sen.|

"**Zakovat**" turnirining Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududiy bosqichida universitetimiz o'qituvchi-xodimlari jamoasi munosib ishtirot etdilar!

Jamoamiz 2 tur bahslarida 18 ochko to'plab, 2315 reyting ko'rsatkichini namoyon etdilar va oliy o'quv yurtlarining 40 ta professional jamoasi o'ttasida kuchli 10 talikdan joy oldilar!

E'tirof etish joiz, 2 ta nodavlat universitet jamoasi eng kuchlilar safiga kirishga muvaffaq bo'ldi.



Xalqaro konferensiya o'tkazildi |25-sen.|



Huquqiy ta'limdi isloh qilish va davlat boshqaruvini oqilonqa idora etishning Finlandiya tajribalari keng o'rganilmoqda.

Poytaxtimizda Finlandiyaning **Xelsinkи universiteti Huquq ustuvorligi markazi** (Rule of law centre), **Toshkent davlat yuridik universiteti** va **Xalqaro Nordik universiteti** hamkorligida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

"Huquq ustuvorligini ta'minlash: Finlandiya tajribasi" mavzusidagi II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov va Toshkent davlat yuridik universiteti rektori, yuridik fanlari doktori, professor Islambek Rustambekov kirish so'zi bilan ochdilar. Ular Finlandiya huquq ustuvorligi mezonlarini o'rganishning ahamiyatiga keng to'xtaldilar.

Konferensiyada Helsinki universiteti Huquq ustuvorligi markazi direktori Tujia Brax va Helsinki universiteti Jinoyat huquqi bo'yicha professori Sakari Melander o'z ma'ruzalari bilan ishtirot etishdi.

Universitetimizda "Xon atlas festivali" shukuhi kezdi!

Universitetimiz xotin-qizlari qadriyatlarimizni e'zozlagan holda milliy liboslar kiyib, 28-sentyabr - "Xon atlas" festivali maqsadlarini qo'llab-quvvatlashdi.

Chellenjda finlandiyalik ustozlarimiz ham katta qiziqish bilan ishtirot etishdi



Finlandiya siyosatchi va huquqshunoslari - universitetimizda |30-sen|



Finlandiya siyosatchisi va sobiq Adliya vaziri, Helsinki universiteti Huquq ustuvorligi markazi direktori, professor **Tuija Brax** hamda uning yordamchisi **Juho Eero Aleksi Pitkanen** universitetimizga tashrif buyurdi.



Finlandiya mutaxassislari yurtimizda qonun ustuvorligi sohasidagi ishlarga katta hissa qo'shib kelishmoqda.



Xususan, Finlandiyadaning huquq sohasidagi tajribali mutaxassislari va ekspertlarini birlashtirgan Huquq ustuvorligi markazi Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida oly o'quv yurtlarida xalqaro konferensiylar o'tkazib, yuqori sifatli akademik va samarali pragmatik tajribalarini bo'lishmoqda.

Bu fin mutaxassislari bilan Xalqaro Nordik universitetida samarali uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda Tuija Brax xonim Finlandyaning qonun ustuvorligiga asos bo'layotgan kuchli ishonch va ta'limga ega jamiyat yaratish borasidagi tajribalarini e'tirof etdi.

Fin huquqshunoslari bilan qonun ustuvorligi masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot va o'quv ishlarini kuchaytirish, hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlariga asos solish borasida kelishildi.

XNU va markaziy nashrlar hamkorligi

Finlandiya tajribasi: uzlusiz ta'lim muvaffaqiyati o'qituvchilar tayyorlash tizimiga bog'liq

(17-iyul)

"Правда востока" gazetasida XNU prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor Odil Qo'ysinov hammuallifligida yozilgan maqola nashr etildi.

Maqolada Finlandiya ta'lim dasturlari, nazariya va amaliyot integratsiyalashuvi, Finlandiya va O'zbekistondagi o'qituvchilar ta'limining qiyosiy tahlili bilan tanishish mumkin.

XNU va markaziy nashrlar hamkorligi

Fransiya moliyaviy inqirozi

Jahon iqtisodiy tizimiga ta'sir ko'rsatgan inqirozlardan biri Fransiya moliyaviy inqirozidir.

XVIII asr bosqlarida Fransiya bank-moliya tizimida qanday hodisalar sodir bo'ldi? Buning "qahramoni" kim edi? Sun'iy ravishga yuzaga keltirilgan infliyatsiya qanday oqibatlarni keltirib chiqardi? Yechimlar nimadan iborat?

Xalqaro Nordik universiteti olimlari Sherzod Mustafakulov va Qobiljon Isayevning "Xalq so'zi" gazetasida nashr etilgan "Dunyo inqirozlari: sabablar, oqibatlar va yechimlar" rukni ostidagi navbatdagi maqolasida shu kabi savollarga javob topish mumkin.



"Ezgu yangilanishlar mamlakati" kitobi - Yangi O'zbekiston solnomasi

Taniqli shoir, jurnalist, mohir muharrir, "Shuhrat" medali, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" unvoni, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi O'tkir Rahmatning ushbu kitobi Yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan xalqchil islohotlarning samaralari aks ettirilgan maqolalarni o'zida jamlagan.

"Ma'rifat" gazetasida Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulovning "Ezgu yangilanishlar mamlakati" kitobi haqidagi maqolasi nashr etildi.



INTILGANGA TOLE YOR!



Xalqaro Nordik universiteti missiyasi – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko'maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashuv sharoitida ta'lif eksportini oshirishdan iborat!



@nordic_edu

